



OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



ORIENTAL
UNIVERSITETI




RECEP TAYYIP
ERDOĞAN
ÜNİVERSİTESİ



SELÇUK
ÜNİVERSİTESİ



2007
KARABÜK
ÜNİVERSİTESİ



**INNOVATION TADVIQOTLARDA
O'ZBEKISTON TARIXINING
DOLZARB MASALALARI MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIIY-AMALIIY ANJUMAN
ELEKTRON TO'PLAMI**

TOSHKENT, 30-APREL 2025-YIL

Mas'ul muharrir:

N.A.Mamataxunov – tarix fanlari bo'yicha PhD

Tahrir hay'ati a'zolari

Sh.Kamoliddin - Tarix fanlari doktori, professor

I.Bobojonov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

I.Xo'jaxonov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Y.Cankaloğlu – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar

H.Hamidov – Oriental universiteti “Tarix” kafedrasida professori, Tarix fanlari bo'yicha doktori

J.Kamolov – O'zMPU “Jahon tarixi” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur ilmiy to'plamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmonlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Oriental universiteti “Tarix” kafedrasida tomonidan 2025-yil 30-aprel kuni tashkil etilgan “**Innovatsion tadqiqotlarda O'zbekiston tarixining dolzarb masalalari**” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalari va tezlari o'rin olgan.

Unda ko'zga ko'ringan olimlar, fan doktorlari, pedagoglar hamda yosh tadqiqotchilarning Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy faoliyati tadqiqiga bag'ishlangan qator ilmiy izlanishlari natijalari o'rin olgan.

Anjuman materiallaridan tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar, pedagoglar, oliy o'quv yurti talabalari manba sifatida foydalanishlari mumkin.

To'plamdagi maqolalar matni va mazmuniga mualliflar mas'uldir!

Ushbu to'plam Oriental universiteti Kengashining 2025-yil 27-mart kuni bo'lib o'tgan 6-sonli yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan.

© Oriental universiteti, 2025

BUXORO SHAHRIDAGI SAVDO RASTALARI TA'MIROTI TARIXIDAN

Dilfuza ABDULLAYEVA

*Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası
katta o'qituvchisi, (PhD)
dilfuza_abdullayeva2023@mail.ru*

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning 30-50-yillarida Buxoro me'moriy obidalari-toqlarning ta'miroti masalasi mutasaddi tashkilotlar faoliyatiga doir hujjatlar asosida yoritiladi. Savdo majmualari Timi Abdullaxon, Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon hamda Toqi Telpakfurushon yodgorliklari bilan bog'liq ta'mirlash va qayta tiklash ishlari, bu boradagi nooqilona yondashuv va mas'uliyatsizlik holatlari dalillanadi. Shu bilan birga, yodgorliklarni muhofaza qilish, saqlash, qolaversa, ulardan foydalanish kabi jarayonlar misolida mavjud hokimiyatning munosabati ham tahlil qilinadi. **Kalit so'zlar:** ta'mirlash, obida, Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon, gumbaz, ravoq, tim, shahar xo'jalik qo'mitasi, shahar soveti.

Аннотация. В статье на основе документов о деятельности соответствующих организаций рассматривается вопрос реставрации архитектурных памятников Бухары — торговых комплексов-токов в 1930–1950-е годы. Ремонтно-восстановительные работы, связанные с торговыми комплексами Тими Абдуллахан, токи Заргаран, токи Саррофан и памятниками токи Телпакфрушон, свидетельствуют о нерациональном подходе и безответственности в этом отношении. При этом анализируется и отношение действующей власти на примере таких процессов, как охрана, сохранение памятников, а, следовательно, и их использование. **Ключевые слова:** реновация, памятник, Токи Заргарон, Токи Саррофон, Токи Тельпакфурушан, купол, крыльцо, коллектив, горэкономкомитет, городской совет.

Annotation. Based on documents on the activities of relevant organizations, the article examines the issue of restoration of architectural monuments of Bukhara — shopping complexes in the 1930s and 1950s. The repair and restoration works related to the shopping complexes of Te Abdullahan, toki Zargaron, toki Sarrofon and the monuments of Toki Telpakfrushon indicate an irrational approach and irresponsibility in this regard. At the same time, the attitude of the current government is analyzed using the example of such processes as the protection and preservation of monuments, and, consequently, their use. **Keywords:** renovation, monument, Toki Zargaron, Toki Sarrafon, Toki Telpak furushon, dome, porch, collective, city economic committee, city council.

Boqiy Buxoroning noyob me'moriy obidalari – savdo toqlarining XX asr 30-yillariga doir ta'mirlanish masalasi tarixiga oid ma'lumotlardan, ularning shahar soveti tomonidan shahar xo'jalik qo'mitasi (Горкомхоз) tasarrufiga berilganligi ma'lum bo'ldi. Keyinchalik, 1934-yilda O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti qaroriga tayanib, savdo toqlari, tim va qadimiy hammom foydalanish uchun Buxoro shahar kommunal xo'jaligi bo'limi ixtiyoriga beriladi[1].

Keyinchalik, Buxoro shahrining qayta loyihalashtirilishi va transport yo'l qurilishi munosabati bilan shahar sovetiga Toqi Sarrofon yodgorligini (shu qatorda Sallohxona, Qarshi, Mozor, Samarqand, Imom va Shergiron darvozalari va ularga tutash devorlar ham – D.A.) buzishga ruxsat berilganligini me'moriy yodgorliklarga bo'lgan mas'uliyatsizlikning yorqin dalili sifatida, qayd etish o'rinli.

Mazkur masala O‘zbekiston SSR MIQning 1939-yil 19-martda bo‘lib o‘tgan Buxoro viloyatidagi tashkiliy qo‘mitasi yig‘ilishida muhokama qilinib, “...*Toqi Sarrofon me‘moriy konstruktiv yechimining Buxoroda mavjud boshqa yodgorliklar[Toqi Zargaron va Toqi Telpakfurushon nazarda tutiladi–D.A.]da ham uchrashi hamda transport harakatlanishini yaxshi yo‘lga qo‘yishni ta‘minlash maqsadida...*” davlat muhofazasidan chiqarish xususida qaror qilinadi[2]. Buxoro viloyati bo‘yicha tashkiliy qo‘mita raisi Yusupov, kotib Melamedov, O‘zbekiston SSR Xalq Komissarligi Soveti raisi Abdurahmonov va ish boshqaruvchi Danilov (ismi hujjatlarda ko‘rsatilmagan – D.A.) imzosi bilan rasmiylashtirilgan mazkur hujjat Buxkomstaris va ilmiy jamoatchilik doirasida bahsli muhokamalarga sabab bo‘ldi. Bu borada M.Y.Massonning sa‘y-harakatlari e‘tiborga molik.

Arxitektor Meyerson boshchiligida 1939-yil 14-aprelda taqdim etilgan Buxoro shahrining qayta loyihalash chizmasiga javoban M.Y.Masson “Buxorodagi me‘moriy yodgorliklar muhofazasi xususida” deb nomlangan ilmiy ma‘ruzasida o‘zining asoslangan mulohazalarini bildirib o‘tadi. Unda M.Y.Masson yodgorliklarga nisbatan uchta toqdan biri buzilsin, qabilidagi bunday “arifmetik” munosabat mutlaqo noo‘rin ekanligini ta‘kidlab, buni me‘moriy yodgorlik qimmatini, ahamiyatini to‘g‘ri baholamaslik va uni asrash vazifasidan uzoqlashish, deb baholaydi. U o‘z fikrlarini davom ettirib, “...*Toqlar kam saqlanib qolgan noyob me‘moriy inshoot turiga mansub bo‘lib, o‘rta asr shaharlaridagi bu kabi savdo rastalari na Turkmaniston SSR, na Tojikiston SSR hamda Qirg‘iziston SSRda saqlanmagan bo‘lib, faqatgina O‘zbekiston SSRda mavjud. Qolaversa, bu yodgorliklar hali to‘liq o‘rganilmagan. Mavjud beshta toqdan qolgan uchta savdo toqi bir-birining nusxalari hisoblanmaydi. Har biri alohida me‘moriy yechimga ega...*”[3],– deb ta‘kidlaydi.

Olim tomonidan transport qatnovini erkin yo‘lga qo‘yish maqsadida katta markaziy ko‘chani shaharning shimoli bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lash rejasi o‘rniga uni sharq yo‘nalishiga burish kabi muqobil taklifining ilgari surilishi noyob me‘moriy merosimizni asrab qolinishiga sabab bo‘ldi.

Buxoro me‘morchiligining durdonalaridan biri bo‘lgan yirik savdo majmuasi – Timi Abdullaxon yodgorligining ta‘mirlanishi hamda qayta tiklash ishlari esa 1927-yilda Sredazkomstaris tasarrufiga olinishi bilan bog‘liq bo‘lganligi ko‘rinadi. Obidadagi keyingi ta‘mirlash 1935-yilda Buxkomstaris raisi Sh.Kamolov mas‘ulligida amalga oshirilgan. Jarayon bilan bog‘liq iqtisodiy hujjatlar mazkur yilda Masjidi Kalon ta‘miri uchun ajratilgan mablag‘ ham (masjidning g‘alla omboriga aylantirilganligi sababli – D.A.) timdagi qayta qurish ishlariga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi. Buning natijasi o‘laroq, Abdullaxon timida keng ko‘lamli ta‘mirlash – janubi-g‘arbiy devor, peshtoq, ravoqlar, tom va tarnov qismlarida amalga oshirildi. Bajarilgan ishlar uchun 10.194 rubl 84 tiyin sarflangan. 1936-yilda Timdagi ta‘mirlash ishlari davom ettirilib, 14.528 rubl mablag‘ hisobidan tashqi devor, binoning ichki qismlarida g‘isht terish, tom va gumbaz, qubbalarida ganch bilan suvoqlash ishlari olib borilgan[4].

Buxkomstaris faoliyatiga doir hisobot hujjatlaridagi ma‘lumotlar keyingi ta‘mir yillarida Tim hamda toqlarda bir qadar qayta tiklash ishlari olib borilganidan guvohlik beradi. Jumladan, 1940-yilda Toqi Telpakfurushonda asosiy gumbaz, tom qismi hamda kichik qubbalar pishgan g‘isht va ganch qorishmalar vositasida

ta'mirlangan. Buning uchun davlat budjetidan 62.233 rubl, maxsus mablag'lar hisobidan 10.000 rubl mablag' ajratilishiga erishilgan. Shuningdek, Toqi Zargaron devorlarining nuragan qismlari hamda gumbazlarida qayta tiklash ishlari bajariladi. Bunda ham maxsus mablag'lar tushumidan 10.000 rubl, budjet hisobidan 12.431 rubl summa jalb etiladi. Timi Abdullaxon peshtoqining janubi-g'arbiy burchak devori esa gumbaz qismidan poydevoriga qadar qayta tiklanishi mazkur obidalar uchun zaruriy ta'mir ishlari edi. 1941-ta'mir yilida maxsus mablag'lar yuzasidan Telpakfurushon toqining ravoq va gumbazlari qayta terilib, tom qismi hamda devorlarida mustahkamlash ishlari olib boriladi.

Arxitektura ishlari boshqarmasi tomonidan 1949-yilda Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon va Timi Abdullaxonda amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida mazkur obidalar alohida savdo majmuasi–kompleks sifatida ilmiy tavsiflanib, asoslandi. Buning natijasida, ushbu yodgorliklar chizmalari shahar bosh rejasiga kiritilishiga erishilgan[5]. Bu toqlarning muhofazasi va xavfsizligini ma'lum ma'noda ta'minlaydigan omil bo'la oldi. Toqi Zargarondagi ta'mirlash ishlari shu yilning o'zidayoq boshlanib, jami 6000 rubl miqdorida mablag' xarj qilingan.

Mavzuga daxldor iqtisodiy hujjatlardan, Arxitektura ishlari boshqarmasining 1951-ta'mir yili dasturiga muvofiq respublika bo'yicha ta'mirlash uchun 588.000 rubl mablag' ajratilganligi ma'lum bo'ldi. Shundan 147.000 rubl miqdori Buxoro me'moriy yodgorliklarining ta'miriga yo'naltiriladi[6]. Yodgorliklar muhofazasi bo'limining bosh muhandisi A.Xaustov, hududiy vakil S.Sharipov, yodgorliklar saqlovchisi I.Mansurovlar tomonidan 1951-yilda Buxoro me'moriy obidalari doirasida amalga oshirilishi zarur ishlar ko'lamini belgilab olinadi. Natijada, budjet hisobidan 40.000 rubl ajratilib, Toqi Zargaronning janubiy yo'lagidagi ta'mir ishlarini yakunlash, barcha yo'laklarning ravoqlarida mustahkamlash amalga oshiriladi. Shu bilan birga Toqi Sarrofondagi ushbu yildagi qayta tiklash ishlariga 10.000 rubl mablag' ajratilgan[7].

Ta'mirlashga mas'ul tashkilotlar faoliyatiga doir yana bir e'tiborli jihat, Telpakfurushon toqining muhofaza masalasi bilan bog'liq bo'lib, 1951-yil avgust oyiga qadar toq yaqinidan o'tadigan mashinalar qatnovining to'xtatilishidir. Sababi, shu yilning 21-fevral sanasida Davlat qurilish muhofaza inspeksiyasi boshlig'i I.Y.Patik tomonidan Toqi Telpakfurushonning texnik holati tekshirilib, transport harakatlanishi natijasida devor suvoqlarida o'pirilish sodir bo'layotganligi rasmiylashtirilgan. Shundan so'ng, 1951-yil 27-avgustda Buxoro shahar ijroiya qo'mitasi rahbari Bakayev toqning ta'miri uchun zarur mablag' ajratilishini so'rab, V.A.Jahongirovga murojaat qiladi[8]. Ammo mavjud ma'lumotlardan 1952-yilda Toqi Telpakfurushonda ta'mirlash ishlari emas, balki ushbu tadbir uchun zarur bo'lgan ilmiy o'rganish hamda o'lchov ishlari olib borilganligi ma'lum bo'ldi. 1953-yilda yodgorlikni to'liq ilmiy tadqiq etish, toqdagi o'tish yo'laklarining ravoqlarini mustahkamlash, tom qismini ta'mirlash kabi ishlar bajarilgan. Buxoro MITICHU tomonidan amalga oshirilgan bu amaliyot uchun maxsus mablag'lar tushumidan 60.000 rubl summa talab etilgan.

Mazkur davrga tegishli bo'lgan toqlardan foydalanish va ijaradorlik bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ularning "Buxoro shahar savdo" idorasi ixtiyoriga

berilganligi aniqlandi. Ijara to'lovi miqdori esa O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1947-yil 30-iyundagi 1012-son qaroriga asoslanib savdo rastalari uchun 1kv.m maydondan yiliga 140 rubl, omborxonaga maqsadidagi foydalanuv uchun esa 75 rublni tashkil etgan. Masala yuzasidan idoralararo yozishmalarni o'rganish davomida quyidagi mulohazali holatga duch keldik.

O'zbekiston SSR Savdo vaziri S.Ziyamov 1952-yil 13-iyunda Vazirlar Kengashi raisining o'rinbosari V.A.Bilbas nomiga yo'llagan xatida go'yoki Toqlar tarixiy yodgorlik hisoblanmasa-da, ulardan tarixiy yodgorlik ijarasi uchun zarur summani to'lash talab etilgani, qolaversa, savdo rastalari tarixiy ahamiyatga ega emasligidan kelib chiqib, ularni Savdo vazirligi hisobiga o'tkazish kerakligini talab etadi. Vaholanki, birinchidan, ushbu obidalarining tarixiy qimmatini, ahamiyatini ilmiy asoslanib 1927-yildayoq davlat muhofazasidagi yodgorliklar ro'yxatiga kiritilgan edi. Ikkinchidan esa, mavjud smeta hujjatlari belgilangan ijara to'lovining yetkazilayotgan zarardan bir necha barobar kamligini dalillaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, S.Ziyamovning savdo majmualari-toqlarga nisbatan "da'vo"lari mutlaqo o'rinsiz bo'lgan, deb hisoblaymiz.

Ijaradorlar tomonidan yetkazilgan zararga qaramay, toqlar binosi muntazam ijara uchun foydalanuvga berilgan. Faqatgina 1952-yil 10-sentabrda rejalashtirilgan ilmiy izlanishlar sabab, Arxitektura ishlari boshqarmasining Buxorodagi hududiy vakili S.Sharipov Toqi Telpakfurushondagi 1953-yilgi ijara shartnomasi imzolanmasligini ta'minlashga erishgan.

Arxitektura ishlari boshqarmasining Yodgorliklar muhofazasi bo'limi taklifi bilan Buxorodagi sayyohlar uchun asosiy ko'rsatmali yo'nalish (marshrut) bo'yicha joylashgan yodgorliklar 1954-yilda qayta ko'rib chiqilib ularning soni o'n beshtaga yetkaziladi. Mazkur ro'yxatda Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon hamda Toqi Sarrofonning mavjudligi ulardagi ta'mirlash va qayta tiklash ishlarining sifatiga, salmog'iga ta'sir ko'rsatishini ta'minlagan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash o'rinliki, tim va toqlarda amalga oshirilgan ta'mirlash ishlari muayyan omillar asosida bajarilgan. Aholi serqatnov harakat yo'nalishida joylashganligi, sayyohlar uchun asosiy ko'rsatma yo'nalish (marshrut) jadvaliga kiritilishi, davlat muhofazasidagi yodgorliklar sifatida ro'yxatga olinishi sabab, tim va toqlarda ta'mirlash va qayta tiklash tadbirlari amalga oshirilgani kuzatiladi. Shuningdek, belgilangan taftish-nazorat komissiyalarining hisobot hujjatlari hamda ta'mirlashga mas'ul tashkilotlarning o'zaro yozishmalarini tadqiq etish orqali, mutasaddilarning beparvoligi va loqaydligi, moliyaviy ta'minotdagi uzilishlar kabi bir qator sabablardan tim va toqlarda bajarilgan ta'mir ishlari salmog'i va sifatining bu kabi inshootlarning saqlovi uchun yetarli bo'lmaganligi ma'lum bo'ldi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Milliy arxivi (*keyingi o'rinlarda* – O'zbekiston MA), R-2296-fond, 1-ro'yxat, 121-yig'majild, 4-8-varaqlar.
2. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 245-yig'majild, 106-varaq.
3. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 245-yig'majild, 92-varaq.
4. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 146-yig'majild, 8-varaq.
5. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 359-yig'majild, 76-varaq.
6. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 381-yig'majild, 55-varaq.

Temurmaliq Raxmatov. Amir Temur hokimiyatga kelishigacha bo‘lgan davrda siyosiy faoliyatning o‘rganilishi	138
Sherzod Jurayev, Durдона Jahongirqizi. Amir Temurning xorazmga yurishi haqida ayrim mulohazalar	141
Shohsanam Safarova. Temuriylar davrida ta’lim	145
Jasur Rustamov. Amir Temur diplomatiyasining o‘ziga xos jihatlari	147
Mirzohid Rahimjonov, Sabina Ishonqulova. O‘zbek davlatchligida alisher navoiy siyomosiga bir nazar	152
Akmal Majidov. Xoja ahror valiy yashagan davrda ijtimoiy-siyosiy holati	155
Bobur Tojiyev. Ost-Indiya kompaniyasi tomonidan uilyam murkfort missiyasining buxoro amirligiga jo‘natilishi	158
Yunusjon Asatov. Buxoroning darvesh amiri	163
Zuhriddin Sobirov. Jadidlarning yangi usul maktablari va ularning jamiyatdagi o‘rni	167
Nurilla Choriyev. Cho‘lpon – jadidchilik harakati namoyandasi	171
Oybek Klichev. Rossiya fabrika qog‘ozlari va ularning o‘rta osiyoga kirib kelishi	174
Furqat Sodiqov, Jaloliddin Jo‘rayev. Turkistonda 1921-1922-yillarda ko‘p tarmoqli iqtisodiyot sharoitida yer-suv islohotining amalga oshirilishi	178
Yashnar Ganixodjeyev. O‘zbekiston ssrda saylov tizimining joriy etilishi va uning huquqiy asoslari	182
Muxlisa Turoпова. O‘zbekistonda davlat nashriyotining tashkil etilishi va faoliyati (1917–1941 yillar)	186
Dilfuza Abdullayeva. Buxoro shahridagi savdo rastalari ta’miroti tarixidan	189
Yoqubjon Tayronov, D.Tuxmakov. O‘zbekistonda XX asrning 30-yillarida ilmfan rivojlanishining ayrim xususiyatlari	193
Д. Комолов. Рассмотрение трудовых споров судами Узбекистане в годы второй мировой войны	197
Feruz Amirqulov. XX asrning birinchi yarmida ikkinchi Sharqiy Turkiston respublikasi vujudga kelishi va uning tarixiy ahamiyati	205
Marufjon Abdusodiqov. XX asr 70-80-yillarida Jizzax viloyatida sanoat tarmoqlarining asosiy yo‘nalishlari	210
Manzalatxon Turg’unpulatova. Qayta qurish yillarida O‘zbekiston aholisining iste’mol savatchasi	214
E’tiborxon O‘lmasova. O‘zbekistonning islom hamkorlik tashkiloti bilan munosabatlari tarixi	219
Islomjon Rustamboyev. O‘zbekiston –saudiya arabistoni: islom qardoshligi va diplomatik hamkorlik tarixidan	224
Manzalatxon Turg’unpulatova. “Otamdan qolgan dalalar” ramziy romani orqali O‘zbekiston qishloq aholisini 1985-1991-yillarda kundalik hayot tarixining qiyosiy tahlili	227
Elyorbek Yo‘ldashev. O‘zbekistonning jahon savdo tashkiloti bilan hamkorligini rivojlanishi	233
Dilmurod Eshnazarov. 1991–2000 yillarda O‘zbekiston va Janubiy Koreya aloqalari	237
Manzalatxon Turg’unpulatova. 1985-1991-yillarda O‘zbekiston aholisining sanoat mahsulotlari bilan ta’minlanishi tahlili	240
Sherzod Salimov. Mehnat migratsiyasi jarayonlarida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari	246
Shoira Xamidova. O‘zbekiston parasportchilarining “matonat maktablari” tashkil etilishi tarixi	253
Iroda Hikmatova. O‘zbekistonning tashqi siyosiy yo‘nalishlarida g‘arbiy yevropaning o‘rni	258
Зоҳид Рахматуллаев. История экономического и культурно-гуманитарного	262